

MILLIY TARBIYA KLASTERALARINI BARPO ETISHDA SHARQ MUTAFAKKIRLARINING ILMIY ME'ROSIDAN FOYDALANISH

Otaxanov Adhamjon Rustam o'g'li

<https://doi.org/10.5281/zenodo.13933048>

Annotatsiya: Sharq xalqlari o'zgacha hayot tarzi, madaniyati, va boshqa xususiyatlari bilan dunyo tamadduniga munosib hissa qo'shganini inobatga olgan holda, tarbiya klasterlarini yo'lga qo'yishda Sharqning dunyoga mashhur ziyolilari va mutafakkir namoyondalari qoldirgan ilmiy me'ros namunalari beqiyos ahamiyatga molik vosita bo'la oladi. Ushbu maqolada Sharq mutafakkirlari ma'rifatchilik harakati va uning tarbiya klasterlariga ko'rsata oladigan ta'siri ochib berilgan.

Kalit so'zlar: Sharq falsafasi, qadriyatlar, madaniyat, renessans, tarbiya klasterlari, ijtimoiy tafakkur, ma'rifatparvarlik.

Abstract: Taking into account that the peoples of the East have made a worthy contribution to the world civilization with their unique way of life, culture, and other characteristics, the examples of the scientific heritage left by the world-famous intellectuals and thinkers of the East are of incomparable importance in establishing educational clusters. can be an asset. This article reveals the impact that Eastern thinkers can have on the Enlightenment movement and its educational clusters.

Key words: Eastern philosophy, values, culture, renaissance, educational clusters, social thinking, enlightenment.

Аннотация: Принимая во внимание, что народы Востока своим уникальным бытом, культурой и другими особенностями внесли достойный вклад в мировую цивилизацию, приводятся примеры научного наследия, оставленные всемирно известными интеллектуалами и мыслителями Востока имеют несравненное значение в создании образовательных кластеров. В данной статье раскрывается влияние, которое восточные мыслители могут оказать на движение Просвещения и его образовательные кластеры.

Ключевые слова: восточная философия, ценности, культура, ренессанс, образовательные кластеры, социальное мышление, просвещение.

Kirish

Siyosiy, iqtisodiy va boshqa jabhalarda ildam taraqqiyotga erishayotgan G'arb mamlakatlarida mafkuraviy tanazzul chuqur ildiz otib borayotgani bugun bizga yaxshi ma'lum. Insonning erkinliklari shu darajada faol targ'ib etilmoqdaki, insoniy axloq va hislatlardan tobora uzoqlashib bormoqda. Tarbiya masalasiga e'tibor qaratishda ajdodlarimizdan qolgan muqaddas qadriyatlarni anglash va ularga munosib tarzda yashab, kelajak avlodga ham qoldirish va tarbiya klasterlarini shakllantirish o'z tariximiz, mentalitetimiz va taraqqiyot yo'limizni aniq belgilashga imkon beradi.

Adabiyotlar tahlili

Mavzuni yoritishda Sharq mutafakkirlari, jumladan, xalqimizdan yetishib chiqqan madaniyat vakillaridan o'rinli foydalanilgan. Sa'diy Sheroziy, Jaloliddin Rumiy, Alisher Navoiy, Kaykovus, Nizomulmuluk, Zahiriddin Muhammad Bobur, Forobiy va boshqa mutafakkirlarning ijodiga murojaat etilgan. Tarbiya sohasidagi mutaxassislarning, jumladan, adabiyotshunoslar, pedagoglar, faylasuflar va boshqalarning ilmiy-tadqiqot natijalari ham muhim manba sifatida o'rganilgan.

Tadqiqot metodologiyasi

Ushbu maqolani tadqiq etishda turli mualliflarning mavzuga doir yozgan manbalari o'rganilib, qiyosiy tahlil qilingan xolda muhim xulosalar chiqarilgan. Bunda nafaqat mahalliy manbalardan, balki, chet-el mamlakatlariga mansub mualliflarning manbalaridan ham unumli foydalanilgan. Tadqiqot jarayonida xolislik, tizimli yondashuv, tarixiylik va mantiqiylik, gnoseologik va aksiologik tahlil kabi tamoyillarga tayanildi. Ilmiy izlanishlar jarayonida analiz va sintez, kuzatish, qiyosiy tahlil, vorisiylik, umumlashtirish kabi tadqiqot usullaridan foydalanildi.

Tahlillar va natijalar

Tarbiya klasterlarining muhim vazifalaridan bo'lgan yoshlarda axloq-odobni va ma'rifatni yuksaltirish maqsadida ta'limni takomillashtirar ekanmiz, ma'naviyat sohasida xalqimiz tomonidan asrlar davomida me'ros qoldirib kelingan qadriyatlarimizni ifodalovchi, bunyodkor g'oyalarga qaratilgan va barcha zamonlarda ham qadr-qimmatini yo'qotmaydigan asarlarni o'rganish, tahlil qilish zarurati yuzaga chiqadi. O'zbek xalqi Sharq madaniyatiga mansub bo'lgan tarixi, madaniyati uzoq davrlarga borib taqaladigan xalq sifatida e'tirof etilgan. Ushbu xalqning dahosini ifodalovchi didaktik-tarbiyaviy asarlarning ko'plari bugun qayta nashr etilmoqda, boshqa tillarga tarjima qilinmoqda va o'zining munosib qadriga ega bo'lmoqda.

Sharq madaniyati o'zining purma'no hikmatlarga boy og'zaki ijodi, san'ati, hayot tarzi bilan dunyo taraqqiyotiga ta'sir ko'rsatgan va boshqa madaniyatlardan farqlanib turuvchi va muvofiq jihatlariga ega. Hindistonda "Kalila va Dimna", Xitoyda Konfutsiyning hikmatlari, arablarda "Ming bir kecha" Eronda "Shoh Bahrom haqidagi qissalar", O'rta Osiyo xalqlarida "Xo'ja Nasriddin to'g'risidagi rivoyatlar" ushbu xalqlarning turmushida uchraydigan qusurlar ustidan tanqid qilib, mazkur xalqlarning ezgu fazilatlarini avlodlarga yetkazish vazifasini bajarib kelmoqda.

Bugungi davrda ham, yurtimizda tarbiyali, barkamol avlodni shakllantirish uchun qadimgi va o'rta asrlarga mansub allomalar, tarbiyashunoslar va donishmandlarning asarlaridan foydalanish o'z ahamiyatini yo'qotgan emas. Bizning yurtimizdan yetishib chiqqan Forobiy, Ibn Sino, Alisher Navoiy, Amir Temur, Ahmad Donish va boshqa mutafakkirlarning, imom Buhoriy, Termiziy, Moturidiy kabi din peshvolarining faoliyatlari inson, umrning mohiyati, insoniy fazilatlar va illatlarni aniqlash, axloqqa ta'sir ko'rsatuvchi omillarni o'rganish borasida mulohaza yuritadi. Ularning bizga qoldirgan ma'naviy me'rosida yoshlar tarbiyasi borasida qimmatli tavsiya, tajribalar mavjud.

Sharqdagi madaniy uyg'onish davrlari, jumladan, birinchi uyg'onish davri (IX-XII asrlar) va ikkinchi uyg'onish davri (XIV-XV asrlar) adabiyot, etika, estetika fanlari rivojida ham yangi davrni boshlab berdi. Dastlabki Sharq renessansi davomida islom dinining ma'rifatparvar roli natijasida ulkan hududda ilm-ma'rifat rivoji amalga oshdi. Ushbu davrda ijod qilgan qomusiy olim **Abu Nasr Forobiy**ning "Fozil odamlar shahri asari" da fazilatli fuqarolardan tashkil topgan jamiyat borasidagi qarashlar ilgari suriladi. Forobiy bunday shahar (davlat) barpo etilishi va oqilona boshqarilishi uchun uning hukmdori o'n ikki hislatni o'zida jamuljam etishi kerakligini uqtiradi.

Ayni paytda Forobiy bunday insonni topish mushkulligini inobatga olib, shunday hislatlarning birortasiga ega bo'lgan o'n ikki nafar inson yurti idora qilishi kerakligini ta'kidlaydi. Oddiy odamlardan tortib, to amaldorlargacha qanday insonlar bo'lishi kerakligini uqtiradi. Mutafakkir inson qadr-qimmatini kamsituvchi jamiyatga qarshi chiqadi. Doimiy

urushlar va bosqinchilikka asoslanuvchi jamiyatni adolatsiz, johil jamiyat sifatida qoralaydi[1]. Forobiy aholisi turli fisq-u fasodlarga berilib yashaydigan va ilm-ma'rifatdan yiroq bo'lgan davlatlarning tanazzulga ketishini juda aniq mushohada va dalillar bilan isbotlaydi. Jamiyat a'zolarini tarbiyalashda muhim bo'lgan mulohazalarini ilgari suradi. Forobiy donishmandligining serqirra bo'lishiga uning yunon mutafakkirlari asarlarini mufassal o'rganib chiqqani ham kuchli ta'sir etgan.

“Qobusnoma” nomli didaktik asari bilan dovrug' qozongan **Kaykovus** insonlarning tarbiyasida chuqur yondashib, ma'lum bir kasblar doirasida va sharoitlarda inson nimalarni bilishi va amal qilishi kerakligiga e'tibor qaratadi. Kaykovus el-yurtga manfaati tegadigan, o'rnak qilsa arzigulik shaxslarni tarbiyalashni javonmardlik orqali erishiladi deb hisoblaydi. Javonmardlikning asosini Kaykovus uch narsada deb biladi. Birinchisi, aytgan so'zning ustidan chiqish, ya'ni rostlik; ikkinchisi rostlikka xilof qilmaslik; uchinchisi, insonparvarlik, xayr ishini ilgari tutish[2]. Mutafakkirning asarlarida ilgari surilgan g'oyalar o'rta asrlarda ijtimoiy fikr taraqqiyotiga katta ta'sir ko'rsatdi.

Kaykovus fikrlarining tushunilishini hayotiy misollar bilan anglanishini yaxshi bilgani holda asarning har bir bobiga mos ibratli voqeani bayon etadi. Bu tadbir bilan asarning zerikarli bo'lib qolishining oldi olingan va asarda tasvirlangan fikrlar jonli chiqqan. O'quvchiga o'rnak sifatida Sosoniylar Imperiyasi hukmdori Xusrav I Anushirvon to'g'risida muhim ma'lumotlar keltiradi. Hadisi shariflardan va Qur'oni karim oyatlaridan ham unumli foydalaniladi.

So'z mulking sultoni sifatida adabiyotimizning rivojlanishiga beqiyos hissa qo'shgan shoir va davlat arbobi Mir **Alisher Navoiy**ning “Xamsa” asarida tarannum etilgan yurt ravnaqi, insoniyat rivoji, qalb poklanishi yo'lida muntazam intilishga targ'ib, umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik va komillikka intilish kabi masalalar barcha davrlarning dolzarb vazifalaridandir. Navoiy asarlarida tasvirlangan obrazlar esa, ana shu yuksak maqsadlar yo'lida yashagan va hatto jonini ayamagan insonlarning sharaflari umr yo'lini o'tkir badiiy bo'yoqlarda tasvirlaydi. Ushbu qahramonlardan biri sifatida tasvirlangan Farhodni bilimli, diyonatli, jismonan baquvvat inson sifatida tasvirlab, har bir insonda komillikka intilish yo'lida namuna sifatida taqdim etadi.

Davlat arbobi va mutafakkir **Nizomulmulk** o'zining “Siyar-ul-muluk” asarida davlat boshqarish tartibi va jamiyat va mamlakat inqiroziga olib keladigan va yuksaltiradigan jihatlarni ko'rsatiladi. Nizomulmulk tarixiy misollar yordamida har bir muhim mulohazasini quvvatlaydi. Insonlar o'rtasida hiyonatkorlik, zulmkorlik, haromga bertilishlik kabi illatlarning bo'lishi qanday oqibatlarini keltirib chiqarishini tushuntirib beradi. Asarning asosiy g'oyasi shundan iboratki, vazir Nizomulmulk shoh va hokimlarni adlu insofga, sulh va muruvvatga, davlatni oqilona boshqarib, qat'iy qoida va tartib o'rnatishga, amaldorlarni vijdonli, pok, halol va imonli bo'lishga, mamlakat obodonligi, uning ahli farovonligi, tinchlik va totuvligini ta'minlash uchun harakat qilishga da'vat qiladi[3].

Umuman olganda, bunday asarlar tarix davomida juda ko'p ijod etilgan va avlodlarga yetkazilgan. Vatanimiz boy qadimiy tarixga ega. Turon, Turkiston, Movorounnahr nomlari bilan shuhrat topgan bu mamlakatning va o'z mehnati bilan uni obod etgan xalqning o'tmishi g'oyat qiziqarli va ibratlidir. O'z ilmiy kashfiyotlari bilan jahon tamadduniga bebaho hissa qo'shgan allomalarning soni, ta'bir joiz bo'lsa “sifati” bilan ham haqli ravishda faxrlana oladigan mamlakatlar, xalqlar kam uchraydi[4].

Xulosa

Yurtimizda tarbiya klasterlari tashkil etilishi o'z-o'zidan uning nazariy asosini va vositalarini aniqlashni taqozo etadi. Yurtimiz xalqlari hayotida qadimdan Sharq madaniyati va qadriyatlarini chuqur ildizlariga ega. Dunyo taraqqiyoti tamaddunida alohida o'rin tutuvchi ajdodlarimiz qoldirgan me'ros bugungi kunda ham yoshlarimiz tafakkurini yuksaltiruvchi manba vazifasini o'tay oladi. Ularning avlodlarga qoldirgan boy ilmiy-ma'rifiy me'rosini o'rganish va muntazam ravishda targ'ib etish xalqimizga xos insoniy fazilatlarining saqlanishida va o'zligini anglashida dasturilamal bo'lib xizmat qiladi.

References:

1. Abu Nasr Forobiy. F84 Fozil odamlar shahri. Nodir va dono fikrlar. — T.: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2004. — 4- b.
2. Кайковус. Кобуснома. Нашрга тайёрловчи С.Долимов. Тошкент, Ўқитувчи, 1986. 153-бет.
3. https://api.scienceweb.uz/storage/publication_files/1982/4286/
4. A.Muhammadjonov "O'rta asrlar tarixi" "Sharq" Toshkent 2017-yil 197-201-betlar.

